

BADIIY ADABIYOT VA TUSH**Tursunqulova Yulduz Raxmatulla qizi,***Abdulla Qodiriy nomidagi JDPU**I bosqich tayanch doktoranti*

Annotatsiya. Maqola badiiy adabiyotda tushning o'rne va ahamiyatini o'rganishga bag'ishlangan. Unda tush tushunchasi tarixiy, madaniy va psixologik nuqtayi nazarlardan tahlil qilinadi, shuningdek, adabiy asarlarda uning ramziy va badiiy funksiyalari ko'rib chiqiladi. Maqolada tush orqali qahramonlarning ichki dunyosi, orzu-istaklari va psixologik holatlari qanday ochilishi misollar bilan ko'rsatiladi. Badiiy matnlarda tush motivining struktura va mazmuni boyitishda, syujet rivojida hamda o'quvchi hissiyatini shakllantirishdagi roli ham tahlil qilinadi. Shu bilan birga, maqola tush fenomenini adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan tasniflash, uning turli janr va davrlardagi namoyon bo'lish xususiyatlarini aniqlashga urinadi. Natijada, maqola badiiy adabiyotda tushning nafaqat estetik, balki psixologik va simbolik ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Tush motivi, psixologizm, badiiy-estetik, folklor, modernizm, ramz, mohiyat, ruhiyat, ongosti, mantiq, instinkt.

Аннотация. Данная статья посвящена изучению роли и значения сна в художественной литературе. Понятие сна анализируется с исторической, культурной и психологической точек зрения, а также рассматриваются его символические и художественные функции в литературных произведениях. В статье на примерах показано, как через сон раскрываются внутренний мир, мечты, желания и психологическое состояние персонажей. Также анализируется роль мотива сна в обогащении структуры и содержания художественного текста, в развитии сюжета и формировании эмоционального восприятия читателя. Кроме того, предпринимается попытка классификации феномена сна с литературоведческой точки зрения и выявления особенностей его проявления в различных жанрах и эпохах. В результате подчеркивается, что сон в художественной литературе имеет не только эстетическое, но и психологическое и символическое значение.

Ключевые слова: мотив сна, психологизм, художественно-эстетический, фольклор, модернизм, символ, сущность, психика, подсознание, логика, инстинкт.

Abstract. This article is devoted to the study of the role and significance of dreams in fiction. The concept of dreams is analyzed from historical, cultural, and psychological perspectives, and its symbolic and artistic functions in literary works are also examined. The article demonstrates, through examples, how dreams reveal the inner world, desires, and psychological states of characters. It also analyzes the role of the dream motif in enriching the structure and content of literary texts, in advancing the plot, and in shaping the reader's emotional response. Furthermore, the article attempts to classify the phenomenon of dreams from a literary studies perspective and to identify its manifestations in different genres and historical periods. As a result, it highlights that dreams in fiction have not only aesthetic but also psychological and symbolic significance.

Keywords: dream motif, psychologism, artistic-aesthetic, folklore, modernism, symbol, essence, psyche, subconscious, logic, instinct.

Kirish. Adabiyot - bu hayot in'ikosi. Kitobxon har qanday fantastik asarda ham reallikni ko'ra olsa, yoxud muqoyasa qila olsa, yozuvchi o'z maqsadiga yetgan hisoblanadi. Zero, o'quvchi asar qahramonlarini haqiqatdan bor, borliqda mavjud deb his qilishi ijodkorning muhim yutug'i hisoblanadi. Shu boisdan «Inson-So'z- Borliq» uchburchagi mavjud. Ijodkorning bosh maqsadi bu «uchlik»da muvozanatni saqlay bilish va kitobxon ishonchini qozonish, voqealar syujetida chuqur hayotiy asos mavjudligi, konfliktning dolzarbligini asoslashdir.

Ba'zan no'noq nosir bayonchilikda xatoliklarga yo'l qo'yadi va natijada voqealar rivojida «ezmalik» qilib qo'yishi mumkin. Bu provardida kitobxon «ishtahasini bo'g'adi». Ammo shunday uslublar mavjudki, usta ijodkor o'z xayolotiga kitobxonda e'tiqod uyg'ota oladi. O'qirmanni yangi va tabiiy dunyoga olib kiradi. Mana shunday uslublardan biri bu - tush motividir. Badiiy adabiyotda bu uslub anchagina yetakchi hisoblanadi. Ya'ni tush motivini badiiy adabiyotda folklordan tortib modern adabiyotda ham uchratamiz. Badiiy asarda tush motivining qo'llashda qanday maqsadlar ko'zda tutilishi haqida fikr yuritishdan avval "Tush-nima? Biz nega tush ko'ramiz?" degan savollarga javob topaylik.

Adabiyotlar tahlili. Mazkur maqolada tush motivining badiiy adabiyotdagi o'rni psixoanalitik va adabiyotshunoslik yondashuvlari asosida yoritilgan. Foydalanilgan adabiyotlarda tushning ruhiy va badiiy mohiyati turli nazariyalar orqali izohlangan.

Freyd (2019) tushni inson ongosti istaklarining ifodasi sifatida talqin qilib, uning psixologik asoslarini ochib beradi. Jung (2025) esa tushni ijodiy sahna sifatida ko'rib, unda insonning ichki "men"i turli rollarda namoyon bo'lishini ta'kidlaydi. Bu qarashlar maqoladagi tushning psixologik va ramziy tabiatini asoslashda muhim o'rin tutadi.

Adabiy manbalarda, xususan Qodiriy va Dostoyevskiy asarlarida tush motivi qahramon ruhiyatini ochish va voqealarga oldindan ishora berish vositasi sifatida ishlatilgan. Bu holat tushning nafaqat psixologik, balki badiiy-estetik vazifasini ham kuchaytiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda badiiy adabiyotda tush motivining qo'llanilishi adabiyotshunoslik va psixoanalitik yondashuvlar asosida o'rganildi. Tadqiqotda asosan sifat (qualitative) tahlil usuli qo'llanildi.

Metodologik asos sifatida matnlarni yaqin o'qish (close reading), kontent tahlili hamda interpretatsion yondashuv ishlatildi. Ushbu usullar yordamida badiiy matnlardagi tush tasvirlari, ularning ramziy ma'nosi va qahramon psixologiyasini ochib berish funksiyasi tahlil qilindi.

Shuningdek, Freyd va Yungning psixoanalitik qarashlari nazariy asos sifatida olingan bo'lib, tushning ongosti jarayonlari va ramziy ifodasi ilmiy jihatdan izohlandi. Adabiy misollar (O'zbek va jahon adabiyoti asarlari) orqali qiyosiy tahlil amalga oshirildi.

Natijada, tadqiqotda tush motivining badiiy matndagi estetik, psixologik va ramziy vazifalari kompleks yondashuv asosida yoritildi.

Tahlillar va natijalar. Inson bolasi - bugungi kunda ko'plab sirlarni anglab yetdi, kashfiyotlar va ixtirolar sababchisi bo'ldi. Ilm-fanning qo'li osmonlarga yetdi. Ammo barcha muammolarning ham yechimi topilgani yo'q. Mana shunday muammolarning biri tushdir. Bu haqida turli nazariyalar bor bo'lsa-da, biz ularning barchasini qabul ham, rad ham qila olmaymiz. Xalq orasida tushni kelajakka ishora, xavf-u xatardan ogohlantirish deb ishonilsa, badiiy adabiyotda uning o'ziga xos badiiy-estetik yuki mavjud. Ma'lum bo'lishicha, odam miyasi uxlab yotganida uyg'oqlik vaqtidan ham ko'ra kuchliroq ishlar

ekan. Unda tushning nima keragi bor? Sababi shundaki, odam uygʻoqlik vaqtida uning butun fikr-u zikri kunduzgi muammolar bilan band boʻladi, shuning uchun barcha muammolarni batafsil hal qilib chiqishining iloji boʻlmaydi. Hal qilinmay qolib ketgan muammolar esa miyaning zaxira nuqtalarida oʻz navbatini kutib yotadi. Uyquga ketgan zahoti odam tush koʻra boshlaydi. Tush miyaga kun boʻyi yigʻilib qolingan maʼlumotlarni joy-joyiga qoʻyishga yordam beradi. Yoki odamning kundalik hayotida erishishga umid qilgan orzulari, fikr-oʻylari koʻpincha tushida amalga oshadi. Psixoanaliz otasi olim Zigmund Freyd :” Tush - buzilishning qoʻriqchisi, uxlashga xalaqit berayotgan qoʻzgʻatuvchilarni bartaraf etishning maxsus usuli. Tush, asosan, jinsiy xarakterga ega boʻlgan istaklarning oʻziga xos amalga oshirilishi sifatida talqin etiladi. Boshqacha aytganda, tush normal odamning fiziologik alahsirashidir. Tushlarni oʻrganish va ularni taʼbir qilish - ruhiy hayotning anglanmaganlik sohasini bilishga nisbatan asosiy yoʻldir”. [4.133] degan edi. Shu bilan birga inson oʻz koʻrgan tushlariga befarq boʻlmaslik kerak deb hisoblaydi.

Biz mazkur maqolada “mashhur” tushlar va ularning oʻngidan kelganiga doir faktlarga toʻxtalishni lozim topdik:

- Filipp Makedonskiyning xotini homiladorlik paytida shunday tush koʻrdi: goʻyo eri uning qorniga sher tasviri tushirilgan tamgʻa bosgan emish. Filippning merosxoʻri jasur, qoʻrqmas boʻladi va sher kabi hammaning ustidan gʻalaba qiladi, deb taʼbirladilar. Dunyoga kelgan Aleksandr esa bu taʼbirni oqladi.

-Yuliy Sezarning xotini tushida erining Senatda oʻldirilishini koʻrdi. Buni eriga aytdi. Lekin Yuliy Sezar bunga eʼtibor bermadi va Senatga bordi. U oʻsha yerda senatorlar tarafidan oʻldirildi.

-Rossiya tarixida esa taxt merosxoʻri Pavel tushida oʻzini qandaydir buyuk kuch tobora tepaga koʻtarib borayotganini koʻrdi. Kelgusi kuni esa Yekaterina II ning toʻsatdan vafot etganini eshitdi. Taxtga oʻtirib impeator boʻldi. Shunda tushlar karomatli boʻlishiga tan berdi.

-Mendelyevga ham uning davriy jadvali tushida ayon boʻlgan edi.

Tushlar ana shunday hayotiy asosga ega boʻlib, u koʻp vaqt oʻz isbotini topgandir. Shunday ekan tushlarni badiiy adabiyotda ham quvvatli kuchga ega deb hisoblash xato boʻlmaydi.

Badiiy adabiyotda ham tush mavzusi juda serqatlam va taʼsirchan vositalardan biri hisoblanadi. Adabiyot tushni shunchaki uxlaganda koʻriladigan tasvir emas, balki qahramonning ichki dunyosini, yashirin qoʻrquvlarini, orzu-intilishlarini ochib beradigan badiiy usul deb hisoblaydi. Badiiy asarda tush motivini xalq ogʻzaki ijodidan tortib bugungi modern adabiyot namunalarda ham uchratish mumkin. Jahon adabiyotida koʻpgina asarlarda ham tush motivining mavjudligi bu uslubning zamon va makon tanlamasligini anglatadi. Buning sababi nimada? Sababi tush real hayotimizning bir boʻlagi ekanligida. Adabiyot esa hayot inʼikosidir.

Tushlarni keng talqin qilgan psixoanalit Karl Yung : “Tush - unda tush ko‘rgan odam ham ssenariy muallifi, ham aktyor, ham prodyuser, ham tomoshabin, ham tanqidchi bo‘lgan sahna ko‘rinishidir”, [3.89] degan edi. Darhaqiqat, inson bolasi har uxlaganda turli, o‘ylab ham topish mushkul bo‘lgan tushlarni ko‘radi. Masalan, Dostoyevskiyning mashhur “Jinoyat va jazo” romani qahramoni Roskolnikovning g‘alati bir tushiga muallif shunday izoh beradi: “Kishi besar-u somon bo‘lib ezilib yurgan chog‘larda uning ko‘rgan tushlari ham ko‘pincha behad qavargan, tiniqlashgan va xuddi o‘ngida ko‘rganga o‘xshagan bo‘ladi. Gohida odamning tushda ko‘rgan narsalari favqulodda juda dahshatli tuyuladi, lekin tushdagi muhit va kechayotgan jarayonlar shu qadar ishonsa bo‘ladigan, umumiy manzaraga mos, uni badiiy jihatdan to‘ldiradigan nozik tafsilotlarga ega bo‘ladiki, ularni o‘ngida tush ko‘rgan odamning o‘zi ham, u boringki, Pushkin yoki Turgenyev singari san'atkor bo‘lgan chog‘ida ham to‘qib chiqara bilmasdi. Shunday tushlar juda uzoq vaqtlar esda qoladi va jismi uryon o‘zi bir holi sar bo‘lib yurgan odamga juda qattiq ta'sir qiladi”. [2.70-71] Muallif tushni naqadar g‘aroyib hodisa ekanligini ta’kidlash bilan birga, uni ruhiyat ifodachisi ham deb ko‘rsatmoqda. Bundan ko‘rinadiki, asardagi qahramon tushlari shunchaki voqealar rivoji uchun xizmat qilmaydi. Balki, qahramon ruhiyatini yaqindan his qilish imkonini beradi.

O‘zbek adabiyotida folklorning deyarli har bir janrida tush motivini uchratish mumkin bo‘lsa, zamonaviy o‘zbek adabiyotida [Javlon Jovliyevning “Qo‘rqma” romani qahramoni tush ko‘rib o‘tmishga qaytadi] ham bu uslub yetakchi. Chunki bu uslubda tabiiylik, reallik quvvati bor. Badiiy asar ruhiyat mahsuli ekan, kitobxonga qahramon tushlari ramzlardan iborat bir “rebus” bo‘lib xizmat qilib o‘zi uchun jaydari bashorat hosil qiladi. Misol tariqasida, ilk romanimiz, Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” asarida shunday bir jihat bor. Romanga kiritilgan Usta Alim va uning ayanchli taqdirida ham Otabekning kelgusi hayotiga ishora mavjud. Zotan, har bitta personaj asarga besabab kiritilmaydi. Otabek farzandli bo‘lgan kechasi shunday bir tush ko‘radi:”...Tush ko‘rar edi: “Chamanda gullar ochilgan emish...Bu gulshan uning o‘ziniki emish... Ul rango-rang chechaklardan ko‘zini ola olmas emish. Tevarakka kelgan yovdan xavf bor emish...Xanjarini ushlab yovg‘a qarshi chiqq‘an emish...Yov qochg‘an emish...Yov orasida onasi ham, otasi ham ko‘rinar emish...Qaytib chamanga kirsas, bir sigir gulni bosib, yanchib o‘tlab yurg‘on emish...Bu holdan o‘zini unutkan va qo‘lidag‘i xanjari bilan sigirg‘a yugirgan emish...Sigir emas – sariq sochli albasti emish... Darmonsizlang‘an va xanjari qo‘lidan tushkan emish...Dunyoni qorong‘uliy bosqan emish...”. [1.204]

Kitobxon bu holatni o‘qigach qalbida tushunilmas bir g‘ashlikni, fojiviy yakunni qalban his qiladi. Kitobxon mantiqqa emas, instinktga tayanib voqealarni oldindan ko‘ra boshlaydi. Masalan, mazkur tushda gulzor – Otabekning hayoti, alvasti – Zaynab ramzini bildirib kelyapti. Ota-onasining yovning orasida tasvirlanishida esa Zaynabga ota-onasining qistovi bilan uylanganligini, bu ish boshidan yo‘l qo‘yilgan xato ekanligini tushunish mushkul ish emas. Zero, roman yakuni buning yaqqol dalili bo‘ladi. Bundan

kelib chiqadiki, badiiy asar insonning aqli bilan emas, balki hislari bilan “ishlashi”ga guvoh bo‘lamiz.

Umuman olganda, badiiy adabiyotda tush quyidagi vazifalarni bajaradi:

- qahramonning ichki ruhiyatini ochadi;
- voqealarga ramziy ma’no beradi;
- kelajakdan darak yoki ishora bo‘lib xizmat qiladi;
- falsafiy va tasavvufiy g‘oyalarni yetkazadi.

Shu sababli tush motivi oddiy detal emas, balki asarning ma’naviy chuqurligini oshiradigan muhim badiiy unsurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdulla Qodiriy. O‘tkan kunlar. www.ziyouz.com 2008 204 – b.
2. F. Dostoyevskiy. Jinoyat va jazo. T.:Ilm-ziyo-zakovat. 2021. 70-71-b.
3. Karl Gustav Yung. Tashqiga boqqan ro‘yo ko‘rar, ichiga boqqan uyg‘onar. T.:Bukhara Books. 2025. 89-b.
4. Zigmund Freyd. Psixoanaliz haqida beshta ma’ruza. T.:Muharrir nashriyoti.2019. 133-b.

